

**TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARNING
ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI**

*Omonova Rayxon Raxmatillayevna,
Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda zamonaviy darsga juda katta talablar qo'yilmoqda. Bu talablardan biri dars jarayonida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan o'z o'rnida va oqilona foydalanishdir. Ammo umumiy o'rta ta'lim maktab Tasviriy san'at fanida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan foydalanishning amaliy va nazariy asoslari haligacha to'liq o'rnatilmagan. Elektron darslik yoki o'quv qo'llanmasi deganda keng ma'noda axborotning yangi avlodi, an'anaviy darsliklarning afzalliklarini kompyuter texnologiyasi bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi, o'quv axborotlarning ko'p variantli (musiq, suxandon ovozi, matn, tasvir, multimedia) didaktik tizimini tushunamiz.

**ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЬЮТЕРНЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

*Омонова Райхон Рахматиллаевна,
преподаватель кафедры «Изобразительное искусство и инженерная
графика» Термезского государственного университета*

Аннотация: В настоящее время к современному уроку предъявляются большие требования. Одним из таких требований является уместное и разумное использование информационных технологий и электронных пособий в ходе урока. Однако практические и теоретические основы использования информационных технологий и электронных учебных пособий в предмете изобразительного искусства общеобразовательной школы до конца еще не созданы. Электронный учебник или учебное пособие в самом широком смысле представляет собой информацию нового поколения, которая позволяет сочетать преимущества традиционных учебников с компьютерными технологиями, многовариантной (музыка, аудио, текст, изображение, мультимедиа) понятной дидактической системой.

**PROBLEMS OF DEVELOPING AESTHETIC CULTURE OF
STUDENTS USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN FINE ARTS
LESSONS**

*Omonova Raykhon Rakhmatillayevna,
is a teacher of the Department of «Fine Art and Engineering Graphics» of
Termiz State University*

Abstract: Nowadays, there are great demands on the modern lesson. One of these requirements is appropriate and reasonable use of information technology and electronic manuals in the course of the lesson. However, the practical and theoretical foundations of the use of information technology and electronic manuals in the subject of visual arts of the general secondary education school have not yet been fully established. Electronic textbook or study guide in the broadest sense is a new

generation of information, which helps to combine the advantages of traditional textbooks with computer technology, multivariate (music, audio, text, image, multimedia) we understand the didactic system.

O'quvchilarning grafikaviy tayyorgarligi takomillashuvi so'nggi yillardagi ilg'or g'oyalar asosida ta'limni qayta qurishning qanchalik tez va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Umumta'lim maktablarida hozir yangi dasturlar bo'yicha ish izchil tashkil etilgan, yangi avlod darsliklari yaratish ustida mutaxassis olimlar ish olib bormoqdalar. Endi esa o'qitish metodlarini yanada takomillash asosiy masalalardan biridir. Bu yo'nalishdagi izlanishlarning zarurligi, birinchidan hozirgi zamon darsiga, o'qituvchilarning ilmiy metodik tayyorgarligiga bo'lgan talablarning ortayotganligidan bo'lsa, ikkinchidan so'nggi yillarda metodik yangiliklarni didaktik nuqtai nazardan o'qituvchilarning baholay olishiga bo'lgan talabning ortib borishi bilan izohlash mumkin.

Taniqli amerikalik olim A.Beytening yozishicha, ta'lim tizimida axborot uzatishning beshta asosiy usuli mavjud: 1) kishilarning o'zaro jonli muloqoti (verbal); 2) matn (grafik tasvir bilan birgalikda); 3) radio; 4) televideniya 5) kompyuter. Bular orasida keng imkoniyatga ega bo'lgan usul kompyuter texnologiyasi bo'lib, o'quvchilarni mustaqil bilim egallashga yetaklaydi. Shu munosabat bilan respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktabida Tasviriy san'at ta'limi jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish haqida to'xtalamiz.

Kompyuter texnikasi tasvirlarini almashtirish jarayonida bajariladigan grafik amallarni animatsiyali tasvirlar yordamida ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarning abstrakt tushunchalarni oson o'zlashtirishlariga ko'maklashadi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tasviriy san'at va chizma geometriya fanida proyeksiyalash bilan bog'liq jarayonlarni kompyuterda harakat (animatsiya)li vositalardan foydalanish orqali o'qitishning samaradorligi oshishiga erishildi. Bu fanlardan amaliy mashg'ulotlar «Yamaha» kompyuteri yordamida «Beysil» tilida yozilgan dasturlar asosida olib borildi va bo'lajak o'qituvchilar maktabda Tasviriy san'atni o'qitishda kompyuterdan foydalana olishga tayyorlana boshlandi. Biroq umumiy o'rta ta'lim maktabida Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik jihatlari haligacha tadqiq qilinmagan.

Haqiqatdan ham, bugungi kunda respublikamizda ilm-fanning jadal taraqqiy qilishi va bilimlarning tez yangilanishi, yangi texnologiyalarning kirib kelishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimining barcha soha, jumladan, ta'lim jarayonida tadbiiq etilishi, kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr talabidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari fikrimizning dalilidir. Hozirgi kunda zamonaviy darsga juda katta talablar qo'yilmoqda. Bu talablardan biri dars jarayonida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan o'z o'rnida va oqilona foydalanishdir. Ammo umumiy o'rta ta'lim maktab Tasviriy san'at fanida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan foydalanishning amaliy va nazariy asoslari haligacha to'liq o'rnatilmagan. Elektron darslik yoki o'quv qo'llanmasi deganda keng ma'noda axborotning yangi avlodi, an'anaviy darsliklarning afzalliklarini kompyuter texnologiyasi bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi, o'quv axborotlarning ko'p variantli (musiqa,

suxandon ovozi, matn, tasvir, multimedia) didaktik tizimini tushunamiz. Elektron qo'llanma maxsus senariy asosida tayyorlanadi. Didaktik tizimli elektron darslik bir nechta tarkibiy qismlardan iborat.

Musiqqa- elektron darslikning alohida qismi bo'lib, elektron darslikning mavzusi va mazmunidan kelib chiqib, unga uyg'unlashgan musiqa tanlanadi.

Matn- har bir elektron darslik, albatta, tegishli mant bilan berilishi, unda o'quvchi bilib oladigan ilmiy tushunchalarning ta'rifi ixcham va lo'nda ifodalanishi, har bir paragrafqa aloqador sarlavhalar ostida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tayanch tushunchalarning tarifi berilishi kerak.

Suxandor so'zi- har qanday o'quv fanidan ishlab chiqariladigan elektron darsliklarda suxandon ovozidan foydalaniladi, ammo uning so'zi matnni aynan takrorlanmasligi kerak. Agar o'quvchi suxandonning so'zini bir eshishda tushunmasa, uni takror tinglash imkoni bo'lishi lozim.

Video tasvir - har qanday elektron darslikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Tasvirlar ikki yoki har xil rangli qilib tayyorlanishi, u matndagi ilmiy va boshqa tushunchalarning mohiyatini ochib berishi, matn bilan ko'rgazmaning uyg'unligini ta'minlashi va darslikka kiritiladigan mohiyatini ochib berishi, matn bilan ko'rgazmaning uyg'unligini ta'minlashi va darslikka kiritiladigan ko'rgazmali (illustativ) materiallarga qo'yilgan barcha texnik va didaktik talablar darajasida bo'lishi lozim. Har bir tasvir matn ifodalangan betda joylashishi kerak, aks holda o'quvchining fikri chalg'ishi mumkin.

Multimedia bu elektron darsliklarning xarakterli xususiyatlaridan eng muhimi, u harakatning mavjudligini ifoda etadi, aks holda o'quvchining fikri chalg'ishi mumkin.

Harakat (animatsiya) esa multimedia, multiplikatsiya usullaridan foydalanib amalga oshiriladi. Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan jarayonlarni, masalan, fizikadan ichki yonuv dvigateli silindridagi porshening harakati, astronomiyadan kunning tunga aylanishi yoki Tasviriy san'atdan proyeksiyalash usullari, kesim va qirqlar, tasvirlarni almashtirishga oid mavzular ko'rsatmalilikka, ayniqsa, multiplikatsiyaga muhtoj.

Multiplikatsiya - bu harakatni sekin-asta ayrim qismlarga ajratib, kerak bo'lsa kadrni to'xtatib hodisa va jarayonlar namoyish qilinadigan uslub bo'lib, uni multfilmga qiyoslash mumkin.

Mazkur usulning afzallik tomoni shundaki, biror jarayonning mohiyatini so'z bilan ifoda etib bo'lmaydigan hollarda, ya'ni abstrakt tushunchalarni o'quvchilar tomonidan osonroq tushunib olishlari bilan izohlanadi.

Shunday qilib, elektron darslik musiqa, matn, suxandon so'zi, rangli tasvirlar, multimediani o'z tarkibiga mujassamlashtirgan zamonaviy didaktik tizimdir. Ammo bunday darslikda hamma komponentlar ishtirok etishi kerak, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Chunki u foydalanish usuliga ko'ra matnli ma'lumotnoma xarakteridagi yoxud maktab darsligining jonlantirilgan elektron variantlari kabi bir qancha turlarga bo'linishi mumkin. Ammo an'anaviy darslikning elektron versiyasini elektron darslik deb tushunmaslik kerak. Elektron o'quv qo'llanmalarining barcha turlari uchta asosiy belgi bilan xarakterlanadi.

O'quv materiallari kichik qismlarga (ma'lum miqdordagi axborotlarga ega bo'lgan hamda mantiqiy jihatdan tartib bilan joylashtirilgan paragraflarga) bo'linishi, bundan oldingi bo'limni bilmay turib keyingisiga o'tmaslik.

Har bir paragraf oxirida o'quvchining materialni qanday o'zlashtirganligini aniqlash uchun sinov savollarning qo'yilishi, o'quvchi bu savolga tezlik bilan javob bera olishi, aks holda u keyingi paragraflardagi ma'lumotlarni o'zlashtira olmasligi.

O'quvchi sinov savoliga javob berganidan keyin uning to'g'ri yoki noto'g'riligini darhol sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi, savollar axborotning tub ma'nosini ochib berishi uchun o'quvchini o'ylashga va mustaqil xulosalar chiqarishga majbur qilishi, boshqacha aytganda, o'quvchi bilim va malakalarini ongli ravishda egallashi uchun o'z bilimi haqida kompyuterdan signallar olib turishi va shu yo'l bilan o'z xarakterini boshqarishi kerak.

O'quv axborotlarni izlab topish erkinligi bilan (matnni o'qish, uning ustida ishlash, axborotlarning boshqa manbalariga chiqishi va hokazo) elektron darslik an'anaviy darsliklardan farq qiladi. Shu boisdan elektron darslikning yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlariga qarab unga ta'limning interfaol vositasi sifatida qaraladi. Ayrim fanlardan maktab darsligi chiziqli usulda yoziladi. Buning ma'nosi shuki, masalan, birinchi betdagi matn ikkinchi betda qaytarilmaganidek, axborotlar ketma-ket joylashtiriladi, ular takrorlanmaydi. Elektron darslikda esa, o'quv materiallari muayyan boshqariladigan bloklarga bo'lib konsektirik usulda beriladi.

Konsentrik tizimda yozilgan darslikda o'quv materialining alohida qismlariga bir necha marta murojaat qilinishi mumkin. Bu, albatta, o'tilganlarni takrorlash degan gap emas, balki mavzuga kompleks yondashgan holda uni chuqurlashtirish, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim va ko'nikmalarni faollashtirish demakdir. Elektron darslik o'zining interfaol xususiyati bilan an'anaviy darslikdan farq qiladi.

Har bir o'qituvchida elektron darsliklarni qaysi fanlardan, qaysi hajmda foydalanish mumkin, degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Elektron darslik maktabda o'qitiladigan ko'pchilik o'quv predmetlaridan, ayniqsa, Tasviriy san'atdan yaratilishi zarur. Chunki o'quv predmetining xususiyatiga ko'ra Tasviriy san'at ko'rgazmalilikka, ya'ni abstrakt tafakkurning rivojlantirilishiga juda muhtoj. Elektron darslik biror o'quv predmetining to'la kursini qamrab olishi yoki abstrakt tafakkurni oydinlashtirish zarur bo'lgan ayrim materiallarni, multimedia (animatsiyali kadrlar) versiyasini o'z ichiga olishi mumkin.

Har qanday elektron darslikka xos xususiyat quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonida teskari aloqaning ta'minlanishi

(kompyuterdan o'quvchiga yuboriladigan axborot oqimi to'g'ri aloqa, o'quv materialini o'zlashtirishdagi kompyuterga kiritiladigan axborot teskari aloqa deyiladi);

- o'quv jarayonini individuallashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- o'quv jarayonining ko'rgazmaliligini oshirishi;
- axborotlarni turli manbalardan qidirish mumkinligi;
- o'rganilayotgan jarayon yoki hodisalarni modellashtirish mumkinligi;
- jamoa va yakkama-yakka o'qitishda undan foydalanish mumkinligi;
- ta'limda o'quvchilarni testdan o'tkazish imkoniyatlarining kengligi
- ta'limning interfaol usul va metodlarning mavjudligi.

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyasi shu darajada rivojlanib ketdiki, hali amaldagi kompyuterlardan foydalanishga ulgurmay "Pentium-4" rusumli zamonaviy kompyuterlar paydo bo'la boshladi. Natijada respublika maktablarida foydalanilayotgan "Agat", "Praves", "Yamaxa" va boshqa xildagi kompyuterlarni zamonaviy kuchli kompyuterlar siqib chiqarmoqda. Keyingi yillarda multimedia va elektron proyektorlarning paydo bo'lishi kompyuter grafikasiga yangicha yondashishga va Tasviriy san'at darslarida bu texnikadan foydalanishni taqazo etmoqda. Ayniqsa, 8-sinfda proyeksiyalash usullari, ko'rinishlarni chizish, yaqqol tasvirlash yasashda kompyuterdan foydalanish mavzu mohiyatini ochib berish bilan birga darsda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiradi. 9-sinfdagi qator o'quv materiallari, jumladan, kesimlar, ularning tasnifi, kesimlarni hosil qilish, qir-qimlar



bo'yicha hamma mavzularni multimedidan foydalanib o'tishga har doim ham ehtiyoj sezilgan va shu sababli kesim va qirqimlar mavzularini multimedia vositasida o'qitishga e'tibor qaratildi.

8-9- sinfda darslarni kompyuterdan foydalanib rejalashtirishda manba sifatida 2016-yilda "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan chop etilgan A. Umronxo'jayevning "Tasviriy san'at-8" va "Tasviriy san'at-9" darsligidan foydalanishga harakat qilindi. 8-sinf Tasviriy san'at darsligi olti bobdan iborat bo'lib, so'z boshi, Tasviriy san'atka kirish, geometrik yasashlar multimediani talab qilmaydi. Chunki bu mavzular birinchidan, tavsifiy xarakterga ega, ikkinchidan, ularning ko'pchilik qismi texnologiya sohasiga kiruvchi texnik mehnat va matematika darslarida ko'rib chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

8. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
9. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi» Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
10. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
11. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994.
12. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil.
13. D.Mamatov «Kompyuter grafikasi» Durdon nashriyoti, B. 2020.-172.
14. Mamatov D. Projects of making clay and plastic toys in pre-school education //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 281-285.